

TARIX JANRINING SHARQ XALQLARI ADABIYOTIDAGI GENEZISI

To‘raqulov Rahmatjon Zokir o‘g‘li

Guldu tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’rix janrining qisqacha mazmun-mohiyati va uning arab, fors-tojik adabiyotidagi ilk namunalari haqida babs yuritiladi. Ayni tahqiqot uchun olingam materiallar ilmiy jihatdan tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar. Ta’rix janri, Musulmon Sharq xalqlari adabiyoti, tadrij, takomil, lug‘at, raqam qiymati, abjad hisobi, jummal hisobi, istilohiy ma’no.

THE GENESIS OF THE GENRE OF HISTORY IN THE LITERATURE OF THE PEOPLES OF THE EAST

To‘raqulov Rahmatjon Zokir’son

Gulistan State University

basic doctoral student

Abstract. This article discusses the brief essence of the genre of history and its first examples in Arabic, Persian-Tajik literature. The materials obtained for this research are scientifically researched.

Keywords. History genre, literature of the Muslim East, progress, improvement, vocabulary, numerical value, abjad arithmetic, jummal arithmetic, terminological meaning.

Tarix moddasi shu nomga asos bo’lgan she’riy san’atlardan biri bo‘lib, muayyan voqeal tarixini so‘zlardan foydalangan holda sabt qilishlikdir. Shunga ko‘ra tarix moddasini yaratishlik sohasini naqqoshlik, musiqa va boshqalar kabi tarix yozish mavzusining eng muhim sohalaridan biri deb bilish mumkin. Bu fanni biladigan bilimdon tarixchi yoki shoir jummal hisobi yordamida har harfning adad qiymati orqali muayyan bir yilga she’r bitish orqali ayni sananing barpo bo‘lish tarixini bunyod etadilar. Ali Akbar Dehxodanining “Dehxudo lug‘atida” bu so‘zga shunday ta’rif berilganining guvohi bo‘lishimiz mumkin: “Tarix moddasi abjad hisobi asosida biron bir misra yoki baytdagi harflarning yig‘indisidan muayyan tarixiy voqeani sanasini chiqarishlikdir”[Ali Akbar Qazviniy. Lug‘oti Dehxudo.

Tehron, 1385-yil. 2456-b.] Ta'rix san'ati abjad hisobiga asoslanadi. Abjad hisobi-arab alifbosida harflarning har biri ma'lum songa tengligi asosida yuritiluvchi hisobdir. Ya'ni arab harflarining har biri alifbo tartibida ma'lum sonni ifodalaydi. Oson eslab qolinishi uchun sonlarni ifodalayotgan harflarni qat'iy alifbo tartibida biriktirish orqali sakkizta sun'iy so'z hosil qilingan bo'lib, ular hech qanday lug'aviy ma'noga ega emas: abjad (ابجـد), havvaz (هـوـز), hutti (حـطـى), kalaman (كـلـمـنـ), sa'fas (سـعـفـصـ), qarashat (قـرـشـتـ), saxxaz (سـخـازـ), zazag (ضـظـعـ). [Saloh Abdussattor Muhammad ash-Shahoviyning "Jummal hisobi va she'riyatdagi ta'rix moddasi". Misr, 1430-yil. 1-b] Abjad hisobi atamasi mazkur so'zlarning birinchisi nomidan kelib chiqqan. Shu sakkiz so'z tarkibidagi qisqa unlilar istisno qilinsa, qolgan harflar 1 dan 1000 gacha bo'lgan sonlarni bildiradi (bu o'rinda o'zbek alifbosidagi "t", "s", "h,x", "z" harflarining arab alifbosida turli ko'rinishlari mayjudligini hisobga olish kerak). Sharq Mumtoz she'riyatida Abjad hisobidan u yoki bu voqeahodisaning yuz berish vaqtini qayd etish, she'rda turli so'z o'yinlarini yuzaga keltirish kabi maqsadlarda samarali foydalanilgan. Shuningdek, Abjad hisobi imkoniyatlari chiston, muammo kabi she'riy boshqotirma janrlarida ham keng istifoda etilgan.

Abjadning har bir harfi quyidagi raqamga ega:

ابـجـدـ هـوـزـ حـطـىـ كـلـمـنـ سـعـفـصـ قـرـشـتـ ثـذـ ضـظـعـ

الـفـ = 1 ، بـ = 2 ، جـ = 3 ، دـ = 4 ، هـ = 5 ، وـ = 6 ، زـ = 7 ، حـ = 8 ، طـ = 9 ، يـ = 10 ، كـ = 20 ، لـ = 30 ، مـ = 40 ،
نـ = 50 ، سـ = 60 ، عـ = 70 ، فـ = 80 ، صـ = 90 ، قـ = 100 ، رـ = 200 ، شـ = 300 ، تـ = 400 ، ـشـ = 500 ، ـرـ = 600 ، ـصـ = 700 ، ـظـ = 800 ، ـضـ = 900 ، ـخـ = 1000

Bu fanning ixtiro qilingan sanasi va vaqtি haqida ko'p ma'lumot yo'q, lekin biz bilgan narsa shuki, u arablar orasida islom dinining boshida qo'llanilgan, Abbosiylar xalifaligi davrining oxirida esa undan foydalanish keng tarqalgan. Ba'zilarning aytishicha, "Abjad harflarining tartibi va ularning muayyan raqam qiymatini ifoda etishi hurufiyalar deb ataluvchi bir firqaga borib taqalib, ular samoviy kitoblarning, jumladan Qur'onning ma'nolari va talqinlari uning harflari va o'sha harflarning raqam qiymati va bildirgan ramzlariga qarab belgilanishi

kerak, deb hisoblagan mazhab bo‘lganlar” [Bahman Bani Hoshimiyning. Fanni moddayi ta’rixsozi va zebohoyi on. Eron. 1437-yil.].

Manbashunos olim Mahmud Hasaniy abjad kalimalarining kelib chiqishi haqida Xoja Muhammad Xoksor qalamiga mansub “G’iyos ul-lug’ot”ning “Mador ul-afozil” qismida keltirilgan ma’lumotlarni shunday izohlaydi: “Bu so’zlarning ma’nosi quyidagichadir:

Abjad - أَبْجَدْ - أَيْ أَبِي وُجْدٍ فِي الْمُعْصِيَةِ (Ay-abiy vujida fil-ma’siyati)-ya’ni mening otam Odam alayhissalom gunoh ustida topildi. Ya’ni undan gunoh sodir bo’ldi.

Havvaz (هَوْزْ - أَيْ إِتَّبَاعُ هَوَاهُ) (Ay-ittaba’ havohu)-ya’ni o’z nafsiga tobe’ bo’ldi.

Huttiy-أَيْ حَطْيٍ - أَيْ حَطْيٍ ذَنْبَهُ بِالْتَّوْبَةِ وَالْاسْتَغْفَارِ (Ay-hutta zanbuhu bittavbati val-istig’fori)-ya’ni uning gunohi tavba va istig’for aytish bilan kamaydi.

Kalaman (كَلَامٌ - أَيْ تَكْلِيمٌ بِكَلِمَاتٍ فَتَابَ عَلَيْهِ بِالْقَبْوُلِ وَالرَّحْمَةِ) (Ay-takallama bikalimatin fatoba alayhi bil-qabuli var-rohmati)-ya’ni u so’zladi(tavba) so’zi bilan, so’ng tavbasi qabul bo’ldi.

Sa’fas-أَيْ ضَاقَ عَلَيْهِ الدُّنْيَا فَأُفْزَعَ عَلَيْهِ (Ay- zoqa alayhid-dunyo, fa-ufiza alayhi)-ya’ni dunyo unga tor bo’ldi, so’ng unga rahm sochildi.

Qarashat-أَيْ أَفْرَأَ بِذَنْبِهِ فَشَرُفَ بِالْكَرَامَةِ (Ay-aqorra bi zanbihi, fa-sharufa bil-karomati)-ya’ni o’z gunohiga iqror bo’ldi, so’ng lutf-u marhamatga noil bo’ldi.

Saxxaz -(ثَخَذَ - أَيْ أَخْذَ مِنَ اللَّهِ قُوَّةً)- (Ay-axoza minallohi quvvatan)-ya’ni Haq taolodan quvvat oldi.

Zazag’-أَيْ صَدَ عَنْهُ نَزْغَ الشَّيْطَانِ بِالْعَظِيمَةِ (Ay- sudda anhu nazg’ush shaytoni bil-azimati)-ya’ni duo bilan shayton nazg’i (zalolati) undan qaytdi, ya’ni haq va tawhid so’zlari bilan. [Mahmud Hasaniy. Ta’rixlarda temuriylar siymosi. Toshkent, 2020. 4-bet.]

Saudiyalik olima Lajin bint Ibrohim G’oziy Majiduddin Feruzobodiyning “Ad-durar ul-mubassasati fil-g’orar il-musallasati”asariga tayanib abjad kalimalarining kelib chiqishi haqida shunday yozadi: “ Abjad hisobidagi dastlabki olti kalima (abjad, havvaz, huttiy, kalaman, sa’fas, qarashat) Madyan podshohlarining ismlari bo’lib, Kalaman ularning eng kattasi bo’lgan. Ularning

bari Shuayb alayhissalom qavmi bilan birga Yavmuz-zullati da halok bo'lganlar. Bu xususda Qur'onda shunday deyiladi: "Bas, u(Shuayb)ni yolg'onchiga chiqardilar. Bas, "soyabon kuni" azobi tutdi. Albatta, u buyuk kunning azobi edi." Zullat-bu sovuq shamol bilan birga yuborilgan bulut bo'lib, Shuayb alayhissalom qavmi Alloh taolo tomonidan yuborilgan otashdan omonlik topish maqsadida uylaridan qochib uning ostiga jamlanishadi. Vaqtiki ular jamuljam bo'lishgach Haq taolo bir otash yuborib ularni otashda kuygan chigirtkalardek kuydirib yubordi. Osim bin Nasr al-Laysiy¹ning yozishicha yuqorida nomlari zikr etilgan podshohlar somiylarning nazdida ismlari tartibidan arabcha yozma kitobatga birinchi bo'lib asos solishgan. Keyinchalik bu tartibdagi harflarga yana 6 ta harf qo'shilgan va bu umumiylar alifbo arab alifbosini yuzaga keltirgan." [Lajin bint Ibrohim G'oziy. Sayd ul-favoid]

Bu fanning fors tiliga kirib kelishi hijriy 5-asrga to'g'ri keladi. Bu she'riy fanni birinchi qo'llagan shaxs Masud Saad Salmon bo'lib, Hindiston hukumatini Sayfuddavla Mahmud ibn Ibrohimga topshirilish sanasi uchun quyidagi tarix parchasini tuzgan:

بە سال پنجه از اين پيش بوريحان	در آن کتاب که کردست نام او تفهيم	کە پادشاهي صاحقران شود پيدا
چو سال هجري بگذشت تى و سين و سه جيم		
Ba soli panja az in pesh bu rayhon	Dar on kitobki kardast nomi u tafhim.	
Ki podshohi sohibqiron shud paydo,	Chu soli hijriy bguzasht teyu sin-u se jim	
(Bu holatdan oz-u ko'p yil o'tib, uning nomini bayon ayladim. Sohibqiron podshohning yilini hijratdan so'ng to, sin va uchta jimdani topdim)		

Ushbu ta'rixning yilini yopishlik uchun abjad hisobidan foydalanamiz. Arab alifbosidagi to sin va uchta jim harfining raqam qiymatini qo'shib chiqsak 463-hijriy sana hosil bo'ladi: 469=3+3+3+60+400=ج+ج+س+ت

Ushbu fanning mutaxassislari ta'rix fanining forsiy tilda yuqoridagi ta'rixning aksi o'laroq muayyan mazmunga ega bo'lgan tarixni birinchilardan bo'lib Xojuyi Kirmoniyga nisbat berishadi.

¹ Mashhur arab grammatik olimi. Arab alifbosida harakatlarni ixtiro qilgan Abul Asvad Duvaliyning shogirdi. Arab alifbosidagi harflarni bir tartibda alifbo shakliga keltirgan va ularga nuqtalar qo'yishlikni joriy qilgan nahv olimi.

Arab olimi Mustafo Sodiq Rofe’iy o‘zining “Tarixu adabil arab” nomli asarid

ta’rix san’atini she’r asosida qo‘llanishining ilk namunalarini sifatida abbosiylar zamonida yashagan shoir Ibn Shabibning zamona xalifasi Almustanjid billahning xalifalik o‘rni haqidagi she’rini misol qilib ko‘rsatadi. Unda shunday deyiladi:

أنت الإمام الذي يحكى بسيرته

من ناب بعد رسول الله أو خلafa

أصبحت لب بنى العباس كلهم

إن عدت بحروف الجمل الخلفا

Anta al-imamullazi yuhka bisiyratih,

Man naba ba’da rosulillahi av xalafan.

Asbahta “labba” bani al-abbos kullahum,

(In adadta bi hurufil jummal al-xulafo.

Siyrati hikoya qilingan imom sensan,

Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga noib xalifa.

Xalifalarni jumal hisobi-la sanasang,

U barcha abbosiylarning asosi bo‘ladir.)

Mazkur baytda ishora qilinayotgan so‘z lub (لب) bo‘lib, lom 30ga, be 2 ga teng. Abjad hisobida ushbu so‘zning raqam qiymati 32 ga teng. Bundan kelib chiqadiki, Almustanjid billah abbosiylarning 32 xalifasi bo‘lgan. Ibn Shabib o‘z she’rida shuni ixcham nazmiy yo‘l orqali bayon etgan.[Mustafo Sodiq Rofe’iy. Tarixu adabil arab. Hindoviy. 125-b.] Shuningdek Mustafo Sodiq Rofeiy hijriy sakkizinchasi asrda yashagan shoir Salohiddin Safdiyning zamonasidagi Badriddin ismli insonga atab yozgan qasidasida ham arab adabiyotidagi dastlabki ta’rix janri borligini ta’kidlaydi. She’r quyidagicha:

لصفات بدر الدين فضل شأنع

تصبو له الأفكار والأسماع

انظر إلى «القلم» الذي يحوي فقد

«صح الحساب بأنه «نفاع»

(Lisifoti Badriddin fazlun shoiun,
 Tasubbu lahul afkor val asmo‘.
 Unzur ila “al-qolam” allaziy yahviy faqod.
 Sahho al-hisabu biannahu “naffo“.)
 Badriddinning sifatlarida ko‘p fazl bordir,
 Tafakkuri keng va diqqati ravon.
 Olingan “Qalam”ga nazar solsang,
 “Naffo“ so‘zini hisobini qil.

Ushbu she’riy parchada “qalam” va “naffo” so‘zleri ta’rix san’atini yuzaga keltirgan so‘zlar bo‘lib, muallif ishora qilayotgan qalam va naffo so‘zlarini abjad hisobida hisoblasak 201 raqami hosil bo‘ladi. Bu she’r tugallanmay qolgani uchun uning nazarda tutgan ta’rixi qanday voqeani ifoda etgani mavhum. Ammo ayni she’riy parcha ta’rix janrining arab adabiyotidagi ilk namunalaridandir.

Rifoiy qilgan tahqiqotlari asosida ta’rix janrining tarixi haqida shunday yozadi: “Qilgan tahqiqotlarim natijasida she’riy ta’rixlarning eng qadimiylarini haqida yolg‘iz ma’lumot beruvchi “Ash-shaqoiq un-no‘moniyya fi ulamo ud-davlatil usmoniyya” kitobidan boshqasini topaolmadim. Bu kitobda zikr etilgan eng qadimgi she’riy ta’rix Shayx Tojuddin ibn Ibrohimning vafoti sanasi haqida yozilgan bo‘lib, u quyidagichadir:

انتقل الشیخ وتاریخه

قد سَكَ اللَّهُ بِسْرَ رَفِيعٍ²

Intaqola ash-shayxu va torixuhu,
 “Qod sakkallohu bisirrin rafie””
 Shayx rihlat qildi va uning tarixi:
 “Qod sakkallohu bisirrin rafi”” jumlasidadir.

Ta’rix moddasi islom madaniyati, xususan, turkiy xalqlar milliy ma’naviy merosining ajralmas bir qismi hisoblangani holda uning tadrijiy takomilining tarixi ayni janr bo‘yicha birlamchi bilimlarning ziyodalashuviga asos bo‘lib xizmat qiladi.

² Allah taolo uning yuksak sirrini pinhon etdi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nosir Boqiriy Biyadihindiy. Fanni moddayi ta'rixnvisi. Oyinayi pajuhash. Eron. 1399-yil.
2. Musoid bin Abdulloh Al-Sadon. At-ta'rix lilmunshaot al-me'moriyyati bihisob al-jummal fish-she'r al-arabi. Saudiya, Ar-Riyod . 1425-yil.
3. Saloh Abdussattor Muhammad ash-Shahoviyning “Jummal hisobi va she'riyatdagi ta'rix moddasi”. Misr. 1430-yil.
4. Bahman Bani Hoshimiyning “Fanni moddayi ta'rixsozi va zebohoyi on”. Eron. 1437-yil.
5. Ali Akbar Qazviniy.Lug‘oti Dehxudo. Tehron, 1385-yil
6. Mahmud Hasaniy. Ta'rixlarda temuriylar siymosi. Toshkent, 2020.